https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Ziyodova Feruza Ravshanovna
Qarshi Xalqaro Universiteti magistranti.Manzil:Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani, Qovchin MFY. Elektron manzil: FZiyodova@bk.ru

FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING TARJIMAVIY - LINGVISTIK TAHLILI

TRANSLATIONAL-LINGUISTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS

Author: **Ziyodova Feruza Ravshanovna**
Master's Student, Qarshi International University, Address: Qovchin Neighborhood (MFY), Qarshi District, Kashkadarya Region, Uzbekistan.E-mail address:FZiyodova@bk.ru

ПЕРЕВОДЧЕСКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙАНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

Автор: **Зийодова Феруза Равшановна**
магистрант Международного университета Карши, Адрес:махалля Ковчин,Каршинский район, Кашкадарьинская область, Узбекистан. Адрес электронной почты :FZiyodova@bk.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning shakllanishi, tarkibiy tuzilishi va semantik-lingvistik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Frazeologizmlarning ko‘chma ma’no orqali mazmun kasb etishi, ularning tarjima jarayonidagi ekvivalentligi hamda ikki til o‘rtasidagi konseptual va semantik farqlar ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, frazeologik birliklarninglarning lingvistik tabiati, milliy madaniyat bilan bog‘liqligi va qo‘llanish xususiyatlari misollar bilan yoritilgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazeologik birliklar, idiomalar, metafora, o‘xshatish, tarjima, ekvivalentlik.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the formation, structural composition, and semantic-linguistic features of phraseological units in English and Uzbek. It examines the figurative nature of idioms, their translation equivalence, and the similarities and differences in conceptual frameworks between the two languages. The study also discusses phraseological units, highlighting their cultural and linguistic characteristics through examples.

Keywords: phraseology, phraseological units, idioms, metaphor, simile, translation, equivalence.

Аннотация

В статье проводится всесторонний анализ особенностей формирования, структурных и семантических характеристик фразеологических единиц в английском и узбекском языках. Рассматриваются переносные значения идиом, их переводческая эквивалентность, а также концептуальные различия между двумя языками. В работе описываются идиомы, метафоры, сравнения, их культурная обусловленность и языковые свойства.

Ключевые слова: фразеология, фразеологические единицы, идиомы, метафора, сравнение, перевод, эквивалентность.

Kirish (Introduction)

Frazeologik birliklar tilning eng murakkab, mazmunan boy va madaniy jihatdan yuklangan qatlamidir. Ular xalqning mentaliteti, qadriyatlari, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiradi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyoslash ikki tilning konseptual maydonini, semantik tafovutlarni va tarjima jarayonidagi qiyinchiliklarni chuqur o‘rganish imkonini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

beradi.Frazeologik birliklarning asosiy belgisi - ularning tarkibiy birlik bo'lishi, majoziy yoki ko'chma ma'noda qo'llanishi va gap tarkibida bitta ma'no ifodalashidir. Frazeologik birliklar tilning eng barqaror va obrazli elementlaridan biri bo‘lib, har bir xalqning madaniyati, tarixiy tajribasi va mentalitetini aks ettiradi. Ular so‘zlarning birikmasidan iborat bo'lsa-da, ko'pincha ko'chma ma'no kasb etadi va nutqning ifodaviyligini oshiradi. Shu sababli frazeologizmlarni o'rganish tilshunoslik va tarjimashunoslikda muhim ahamiyatga ega.

Tarjima jarayonida frazeologizmlarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha ma’noni buzadi, chunki har bir tilning frazeologik tizimi milliy-madaniy kontekst bilan bog‘liq. Masalan, ingliz tilidagi “once in a blue moon” frazeologizmi “juda kamdan-kam” degan o‘zbekcha ekvivalenti bilan ma’nosi jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ularning obrazliligi va tarixiy kelib chiqishi farq qiladi. Shu bois frazeologizmlarni tarjima qilishda ekvivalent tanlash, tavsifiy tarjima, madaniy moslashtirish va kontekstual yondashuvlar talab etiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni lingvistik va tarjimaviy jihatdan tahlil qilish, ularning semantik xususiyatlarini aniqlash va tarjimada qo‘llaniladigan strategiyalarni aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi(Literature review)

A. I. Smirnitskiy frazeologik birliklarni semantik jihatdan bitta so'zga teng bo'lgan tuzilma sifatida talqin qiladi. Ingliz tilshunosi Mc Carthy va O'Dell idiomalarni formuaik tilning tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi. O'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad asarlarida frazeologizmlar keng qamrovli qo'llanilgan,va mahorat bilan ishlangan.Frazeologik birliklar tilning madaniy va obrazli qatlamini aks ettiradi. Vinogradov (1980) ularni barqaror va erkin frazeologizmlarga ajratib, barqaror birliklarning semantik birlikligini ta’kidlaydi. Mel’chuk (1995) frazeologizmlarning tarkibiy va majoziy xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarurligini bildiradi. Tarjima tadqiqotlarida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

frazeologizmlarning noekvivalentligi va madaniy konnotatsiyalari asosiy muammo sifatida ko‘riladi. Baker (1992) frazeologizmlarni tarjima qilishda uch asosiy strategiyani tavsiya qiladi: ekvivalent frazeologizm bilan tarjima qilish, tavsifiy tarjima va madaniy moslashtirish. Masalan, "to spill the beans" frazeologizmi o‘zbek tilida “sirni oshkor qilmoq” tarzida tarjima qilinadi.

Metodlar (Methods)

Tadqiqot qiyosiy - lingvistik (comparative-linguistics), semantik-pragmatik (semantik-pragmatik analysis) va kognitiv-linguistik(cognitive-linguistics) yondashuvlar asosida olib boriladi. Shuningdek, frazeologik birliklarning struktur-morfologik modeli, metaforik asoslari va lingvomadaniy omillari tahlil qilindi. Misollarkorpus lingvistikasiga xos tamoyillar asosida tanlab olindi. Maqolada qiyosiy - lingvistik, struktur va semantik tahlil metodlariga tayangan holda ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birikmalar, idiomalar, metafora va o'xshatishlarning tarjimasi va ma'no tafovutlari o'rganildi.Ushbu tadqiqot frazeologik birliklarning lingvistik va tarjimaviy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Qiyosiy tahlil

Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan solishtirildi. Bu usul orqali frazeologizmlarning ekvivalent va noekvivalent jihatlari aniqlangan.

2. Etimologik tahlil

Har bir frazeologik birlikning kelib chiqishi, tarixiy ildizlari va madaniy konteksti o‘rganildi. Masalan, break the ice frazeologizmi qadimiy dengizchilarning muzli suvda yo‘l ochish harakatidan kelib chiqqan.

3. Tarjima strategiyalarini tahlil qilish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Frazeologizmlarni tarjimada qo‘llaniladigan asosiy strategiyalar (ekvivalent bilan tarjima, tavsifiy tarjima, madaniy moslashtirish) tadqiq qilindi.

4. Ma’lumotlar bazasi va misollar

Tadqiqot jarayonida 40dan ortiq frazeologik birliklar namunalar sifatida tanlandi va ularning inglizcha va o‘zbekcha ekvivalentlari tahlil qilindi.

5. Tizimlashtirish va guruhlash

Frazeologizmlar ma’no guruhlari bo‘yicha tasniflandi: emotsional holat, xarakter, qiyinchilik, muvaffaqiyat, sirni saqlash yoki oshkor qilish kabi kategoriyalar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Ushbu metodlar yordamida frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari va tarjimada yuzaga keladigan muammolar tizimli tarzda o‘rganildi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar ma’no guruhlari bo‘yicha tizimli tarzda tasniflanishini ko‘rsatdi. Frazeologizmlar emotsional holat, qiyinchilik va muammo, muvaffaqiyat, xulq-atvor hamda sir saqlashni ifodalovchi guruhlarga ajratildi. Har bir frazeologizm so‘zma-so‘z tarjima va real o‘zbekcha ma’nosi asosida tahlil qilindi.

Emotsional holatni bildiruvchi frazeologizmlar:

Inglizcha frazeologizm	So‘zma-so‘z tarjima	O‘zbekcha ma'nosi
to be over the moon -	oy ustida bo'lmoq. -	juda xursand bo'lmoq
on cloud nine	to‘qqizinchi bulutda	haddan tashqari baxtiyor bo‘lmoq
to have butterflies in one’s stomach	qornida kapalaklar uchmoq	hayajonlanmoq
to lose one’s temper.	jahldan ayrilmoq.	jahli chiqmoq

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Qiyinchilik va muammo bildiruvchi frazeologizmlar:

Inglizcha frazeologizm	So‘zma-so‘z tarjima	O‘zbekcha ma’nosi
between a rock and a hard place	b tosh va qattiq joy orasida	ikkita o‘t orasida qolmoq
in deep water	chuqur suvda	qiyin ahvolda qolmoq
to be at one’s wits’ end	aqlini oxiriga yetmoq	nima qilishni bilmay qolmoq

Muvaffaqiyat va osonlikni bildiruvchi frazeologizmlar:

Inglizcha frazeologizm	So‘zma-so‘z tarjima	O‘zbekcha ma’nosi
a piece of cake	tort bo'lagi	juda oson
to hit the jackpot	katta yutuqni urib olish	omad kulib boqmoq
to kill two birds with one stone	bir tosh bilan ikki qushni urmoq	bir o'q bilan ikki quyonni urmoq.
to make it	bunga erishmoq	muvaffaqiyat qozonmoq

Xulq-atvorni bildiruvchi frazeologizmlar:

Inglizcha frazeologizm	So‘zma-so‘z tarjima	O‘zbekcha ma’nosi
two-faced.	ikki yuzli	ikkiyuzlamachi
a cold fish	sovuq baliq	sovuqqon odam
big-hearted	katta yurakli	mehribon, saxiy
tight-fisted	mahkam mushtli	baxil

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Sir saqlash va oshkor qilishni bildiruvchi frazeologizmlar:

Inglizcha frazeologizm	So‘zma-so‘z tarjima.	O‘zbekcha ma’nosi
to spill the beans	loviyani to‘kmoq.	sirni oshkor qilmoq
to let the cat out of the bag	txaltadan mushukni chiqarib yubormoq	tsirni tasodifan aytib qo‘ymoq
to keep something under wraps	o'rab qo'ymoq	sir saqlamoq
to keep a secret	sirni ushlab turmoq	sir saqlamoq

1.Frazeologik birliklarning shakllanishi

Frazeologik birikmalar kamida ikki leksemadan iborat bo'lib, yaxlit bir ma'noni ifodalab keladi. "In hot water" -muammoga duch kelmoq. Bunda" in hot water". -iborasi bitta umumiy mazmuniga ega. "Qovog'idan qor yog'di" -yomon kayfiyat, kayfiyati yo'q.

2.Idiomalarning tahlili.

"A Wolf in sheep clothing "ma'nosi: yovuz, ammo yaxshi ko'ringan odam. Bu birikma grammatik jihatdan ot+aniqlovchi bo'lsada, semantik jihatdan bir butunlikni ifodalaydi.

3 O'zbek tilida ham Ingliz tilida ham, frazeologizmlar ko'pincha metaforik konseptlar asosida shakllanadi.

Weather-Mood (kayfiyatni ob-havo orqali ifodalash) Masalan :feel under the weather - so'zma-so'z:ob havo tagida qolgandek his qilish. Tarjimasi: "o'zini yomon his qilish". "Qovog'idan qor yog'di" -ma'nosi:xafa bo'ldi, kayfiyati buzildi.

Animal-character. (xarakterni hayvon timsolida ifodalash). as sly as a fox - tulkidek ayyor, O'zbek tilida ham bu ibora mavjud."Tulkidek ayyor". Ma'nosi-juda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

ayyor."As strong as an ox"- hukizdek kuchli. O'zbek tilida ham mavjud, ma'nosi: juda kuchli .Ikki tilda ham animal characters o'xshatishi (similes)mavjud.

O'zbek va Ingliz tillaridagi ba'zi ma'nodosh iboralar:

Inglizcha	Ma'nosi	So'zma-so'z	O'zbekcha ekvivalenti
Donkey work	og'ir, zerikarli ish	eshakdek ishlash	eshakdek ishlamoq
Fight like cat and dog	janjallashmoq	It-mushuk bo'lib urushmoq.	it-mushuk bo'lmoq.
In the blink of an eye	juda tez,lahzada-	ko'z ochib yumguncha.	ko'z ochib yumguncha.
Bite your tongue	Gapirmaslik	tilini tishlamoq	tilini tishlamoq
Lend an ear	diqqat bilan tinglamoq	quloq bermoq.	quloq tutmoq.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki frazeologik birikmalar bir tildan ikkinchi tilga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmaydi. Ularning tarkibiy qismlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ular yaxlit ma'noni saqlaydi. Ba'zilari tarjima davomida ekvivalent talab qiladi.Iz yuqorida ko'rib o'tganimizdek ba'zi ingliz frazeologizmlarini to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tilida aniq o'xshash ma'nosi mavjud.

Muhokama (Discussion)

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar o‘rtasida semantik o‘xshashliklar bilan bir qatorda sezilarli madaniy va obrazli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Emotsional holatni bildiruvchi frazeologizmlar ikki tilda ham keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi, biroq ularning obrazli asoslari turlicha. Masalan, ingliz tilidagi"on cloud nine"iborasidagi “bulut” obrazi o‘zbek tilida to‘liq saqlanmaydi va u umumiy ma’no orqali tarjima qilinadi. Bu holat frazeologizmlarning tarjimasida so‘zma-so‘z yondashuv samarasiz ekanligini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

tasdiqlaydi.Qiyinchilik va muammo bildiruvchi frazeologizmlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, buguruhdagi iboralarda kontekstual moslik muhim ahamiyatga ega."Between a rock and a hard place"va “ikkita o‘t orasida qolmoq” iboralari semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ularning obrazli manbalari turli madaniy tajribalarga asoslangan. Shu sababli tarjimada ekvivalent tanlashda nafaqat ma’no, balki stilistik ranglanish ham hisobga olinishi zarur.

Muvaffaqiyat va osonlikni bildiruvchi frazeologizmlar ko‘pincha universal tushunchalarga asoslangan bo‘lib, ular tarjimada nisbatan kam muammo tug‘diradi."A piece of cake"va “juda oson” iboralari bunga misol bo‘la oladi. Biroq bu yerda ham obrazli komponent ko‘pincha yo‘qoladi, natijada frazeologik rang kamayadi.

Xulq-atvorni bildiruvchi frazeologizmlar madaniy jihatdan eng rang-barang qatlamni tashkil etadi."Two-faced"va “ikkiyuzlama” kabi birliklar to‘liq ekvivalentga ega bo‘lsa-da, ayrim iboralarda baholovchi komponent kuchli bo‘lib, tarjimada ohangni to‘g‘ri berish muhim bo‘ladi. Sir saqlashni bildiruvchi frazeologizmlar esa ko‘pincha izohli yoki tavsifiy tarjimani talab qiladi, chunki ularning so‘zma-so‘z tarjimasi ma’noni buzadi (to spill the beans).

So'zma - so'z, ham o'zbek tilida, ham ingliz tilida bir xil ma'no bildiruvchi ba'zi iboralar,barcha tillarning ildizi yaqin ekanligidan dalolat beradi. "Fight like cat and dog" ideomasi o'zbek tilida mavjud bo'lib, "it-mushuk bo'lib urushmoq" ma'nosini berishi o'zbek va ingliz tillarini madaniy yaqinligidan darak beradi.

Umuman olganda, muhokama natijalari frazeologik birliklarni tarjima qilishda ekvivalentlik darajasini aniqlash, madaniy kontekstni hisobga olish va kontekstga mos tarjima strategiyasini tanlash muhim ekanligini ko‘rsatadi. Frazeologizmlarning ma’no guruhlari bo‘yicha tahlili tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etishga yordam beradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Xulosa (Conclusion)

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning lingvistik va tarjimaviy xususiyatlarini tahlil qilishga qaratildi. O‘tkazilgan tahlil natijalari frazeologizmlarning ko‘pchiligi so‘zma-so‘z tarjimada o‘z ma’nosini yo‘qotishini va ularni to‘g‘ri talqin qilish uchun ekvivalent yoki tavsifiy tarjima strategiyalarini qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, frazeologik birliklarning madaniy va obrazli komponentlari tarjima jarayonida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida frazeologizmlar emotsional holat, qiyinchilik va muammo, muvaffaqiyat, xulq-atvor hamda sir saqlashni bildiruvchi semantik guruhlarga ajratildi. Bu tasnif frazeologik birliklarning ma’no xususiyatlarini chuqurroq anglash va ularni tarjimada to‘g‘ri qo‘llash imkonini berdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, muvaffaqiyat va osonlikni bildiruvchi frazeologizmlar ko‘proq universal xarakterga ega bo‘lsa, xulq-atvor va sir saqlashni ifodalovchi birliklar ko‘pincha madaniy jihatdan farqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayoni tarjimondan nafaqat til bilimini, balki madaniy kompetensiya va kontekstni chuqur tushunishni ham talab etadi. Ushbu tadqiqot natijalari frazeologiyani qiyosiy jihatdan o‘rganish va tarjima sifatini oshirishda nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ayrim masalalari. 1966.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1978.

3. O’Dell F., McCarthy M. English Idioms in Use. Cambridge Univ., 2010.

4. Siefring J. Oxford Dictionary of Idioms. OUP, 1999.

5. Cowie A.P. Phraseology. OUP, 1998.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

6. Fernando C. Idioms and Idiomaticity. OUP, 1996.

7. Cruse D.A. Meaning in Language. OUP, 2000.

8. Palmer F.R. Semantics. CUP, 1981y

9. Collins COBUILD Idioms Dictionary, 2011y

10. Kunin A.V. Kurs frazeologii angliyskogo yazyka. 1996.

11. Amosova N.N. English Phraseology. 1963.

12. Fillmore C. Frames and Semantics Theory. 1985.y